# XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
## *(2022- yil yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma'lumot)*

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 110,9 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 32,8 mln AQSH dollariga yoki 22,8 % ga kamaygan.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI**
***(yanvar-mart, mln AQSh dollari)***



| | 2021- yil | 2022- yil | O'sish sur'ati, % da | Jamiga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|---|
| **Tashqi savdo aylanmasi** | 143,7 | 110,9 | 77,2% | X |
| **Eksport** | 49,2 | 53,6 | 108,8% | 100,0 |
| *tovarlar* | 47,1 | 49,1 | 104,3 | 91,6 |
| *xizmatlar* | 2,1 | 4,5 | 2,1 m. | 8,4 |
| | | | | |
| **Import** | 94,4 | 57,3 | 60,7% | 100,0 |
| *tovarlar* | 94,4 | 57,3 | 60,7 | 100,0 |
| | | | | |
| **Saldo** | -45,2 | -3,7 | x | x |

Eksport hajmi 53,6 mln AQSH dollari (8,8 % ga koʻpaygan) boʻlib, import hajmi 57,3 mln AQSH dollarini (39,3 % ga kamaygan) tashkil etdi. Hisobot davrida 3,7 mln AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

*Ma’lumot uchun: Oʻzbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika koʻrsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi oʻrinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi oʻrinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu oʻz navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST boʻyicha kodlashtirish, TIF TN va XSST oʻrtasida oʻtish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BOʻLGAN DAVLATLAR**
***(2022- yil yanvar-mart, mln AQSH dollari, ulushi % da)***

| Davlat | TSA | Eksport | Import |
|---|---|---|---|
| **Turkiya** | 26,1 | 6,4 | 19,7 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | 26,0 | 16,0 | 10,0 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | 19,6 | 3,4 | 16,2 |
| **Qozog’iston** | 11,7 | 10,9 | 0,8 |
| **Qirg’iziston Respublikasi** | 5,7 | 5,6 | 0,1 |
| **Turkmaniston** | 2,7 | 1,3 | 1,4 |
| **Pokiston** | 2,3 | 2,2 | 0,1 |
| **Ukraina** | 1,7 | 0,6 | 1,1 |
| **Koreya Respublikasi** | 1,6 | 0,1 | 1,5 |
| **Germaniya** | 1,5 | 0,6 | 0,9 |

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat boʻyicha jahonning 73 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Turkiya (23,5 %), Rossiya Federatsiyasi (23,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (17,7 %), Qozogʻiston (10,5 %) davlatlariga toʻgʻri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli oʻzgarishlarga import tovarlarning oʻrnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini koʻrish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
***(yanvar-mart, mln AQSH dollari)***

| Davlat nomi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Turkiya** | **10,8** | **13,4** | **26,1** |
| Eksport | 5,7 | 7,2 | 6,4 |
| Import | 5,1 | 6,2 | 19,7 |
| Saldo | 0,6 | 1,0 | -13,3 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **31,9** | **17,5** | **26,0** |
| Eksport | 8,9 | 10,6 | 16,0 |
| Import | 23,0 | 6,9 | 10,0 |
| Saldo | -14,1 | 3,8 | 6,0 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **16,2** | **39,8** | **19,6** |
| Eksport | 3,0 | 6,9 | 3,4 |
| Import | 13,2 | 32,9 | 16,2 |
| Saldo | - 10,2 | - 26,1 | - 12,8 |
| **Qozogʻiston** | **2,9** | **5,7** | **11,7** |
| Eksport | 2,3 | 3,9 | 10,9 |

| Davlat nomi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| Import | 0,6 | 1,8 | 0,8 |
| Saldo | 1,7 | 2,1 | 10,1 |
| **Qirg'iziston Respublikasi** | **9,3** | **9,8** | **5,7** |
| Eksport | 9,2 | 9,8 | 5,6 |
| Import | 0,1 | 0,0 | 0,1 |
| Saldo | 9,1 | 9,8 | 5,5 |
| **Turkmaniston** | **2,5** | **3,8** | **2,7** |
| Eksport | 1,7 | 2,7 | 1,3 |
| Import | 0,8 | 1,1 | 1,4 |
| Saldo | 0,9 | 1,6 | -0,1 |
| **Pokiston** | **0,1** | **1,5** | **2,3** |
| Eksport | 0,0 | 1,0 | 2,2 |
| Import | 0,1 | 0,5 | 0,1 |
| Saldo | -0,1 | 0,5 | 2,1 |
| **Ukraina** | **1,9** | **2,0** | **1,7** |
| Eksport | 0,8 | 1,0 | 0,5 |
| Import | 1,1 | 1,0 | 1,2 |
| Saldo | -0,3 | 0,0 | -0,5 |
| **Koreya Respublikasi** | **1,0** | **8,4** | **1,6** |
| Eksport | 0,1 | 0,3 | 0,2 |
| Import | 0,9 | 8,1 | 1,4 |
| Saldo | -0,8 | -7,8 | -1,2 |
| **Germaniya** | **1,1** | **2,8** | **1,5** |
| Eksport | 0,1 | 0,2 | 0,6 |
| Import | 1,0 | 2,6 | 0,9 |
| Saldo | -0,9 | -2,4 | -0,3 |

## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

*(yanvar-mart, mln AQSH dollari, ulushi, % da)*

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022 - yilning yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 44,9 % ni tashkil etdi.




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022 - yilning yanvar-mart oylarida 2021 - yilning shu davriga nisbatan 40,4 foizga kamaygan va jami TSA dagi ulushi 55,1 %ni tashkil etdi.

# XORAZM VILOYATINING EKSPORTI
*(2022- yil yanvar-mart)*

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatning eksportyorlari soni 92 tani tashkil etib, ular tomonidan 53,6 mln AQSH dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 8,8 %ga ko‘paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 91,6 %ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (48,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (27,0 %), turli xil tayyor buyumlar (9,2 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




**XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)***




- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 27,0
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari – 3,0 %
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 1,9 %
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 2,0 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 0,1 %
- Sanoat tovarlari – 48,5 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 0,1 %
- Turli xil tayyor buyumlar – 9,2 %
- Xizmatlar – 8,4 %

# MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
*(2022- yil yanvar-mart)*

| XSST tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln AQSH dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln.AQSH dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln AQSH dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| **Jami eksport** | **53,6** | **108,8** | **100,0** | **35,6** | **119,1** | **100,0** | **18,0** | **93,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 14,5 | 100,2 | 27,0 | 11,4 | 112,7 | 32,6 | 3,1 | 93,0 | 16,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | - | 0,0 | 0,0 | - | 0,0 | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 1,6 | 53,8 | 3,0 | 0,4 | 73,9 | 1,3 | 1,1 | 48,6 | 6,3 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 1,0 | 34,3 m. | 1,9 | 0,6 | 19,3 m. | 1,6 | 0,5 | 1312,5 m. | 2,5 |
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 1,1 | 15,3 m. | 2,0 | - | - | - | 1,1 | - | 5,8 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 0,1 | 45,6 | 0,1 | 0,1 | 44,3 | 0,2 | 0,0 | - | 0,0 |
| Sanoat tovarlari | 26,0 | 102,3 | 48,5 | 14,6 | 119,8 | 41,0 | 11,4 | 86,2 | 63,1 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,0 | 20,5 | 0,1 | 0,0 | 20,5 | 0,1 | - | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 4,9 | 126,4 | 9,2 | 4,9 | 128,5 | 13,8 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Xizmatlar | 4,5 | 2,1 m. | 8,4 | 3,5 | 2,1 m. | 9,9 | 1,0 | 190,3 | 5,4 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

2022- yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yilning yanvar-martiga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar, hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar eksportida pasayish kuzatildi.




**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(yanvar-mart, % da)***

| XSST tarkibi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 15,4 | 29,3 | 27,0 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,1 | - | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xom ashyo, yoqilg‘idan tashqari | 17,1 | 6,0 | 3,0 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | - | 0,0 | 1,6 |
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,4 | 0,1 | 2,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 0,3 | 0,3 | 0,1 |
| Sanoat tovarlari | 47,5 | 51,5 | 48,5 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,2 | 0,4 | 0,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 11,3 | 7,9 | 9,2 |
| Xizmatlar | 7,8 | 4,4 | 8,4 |

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI
*(yanvar-mart, mln AQSH dollari, ulushi % da)*

2022- yilning yanvar-mart oylarii yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 29,8 %), Qozog'iston (20,2 %), Turkiya (11,9 %), Qirg'iziston (10,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (6,4%), Pokiston (4,1 %) va Afg'oniston (2,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 85,4 foizni tashkil etmoqda.



## XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
*(2022- yil yanvar-mart, % da)*




2022- yilning yanvar-mart oylarida oʻtgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti boʻyicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Turkiya va Qozogʻiston oʻrin egallagan.

## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA OʻSISH SURʼATLARI
*(yanvar-mart)*

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | Oʻsish surʼati, % da | | Oʻrni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 10,6 | 16,0 | 119,6 | 150,1 | 1 | 1 |
| Qozogʻiston | 3,9 | 10,8 | 168,6 | 2,8 m. | 5 | 2 |
| Turkiya | 7,2 | 6,4 | 125,3 | 89,3 | 3 | 3 |

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Qirg‘iziston Respublikasi | 9,8 | 5,6 | 107,0 | 57,3 | 2 | 4 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 6,9 | 3,4 | 2,3 m. | 49,6 | 4 | 5 |
| Pokiston | 1,0 | 2,2 | 129094,2 m. | 2,2 m. | 9 | 6 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg‘idan tashqari) kiradi.



**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-mart, mln AQSH dollari)***

| XSST tarkibi | Rossiya | | Qozog‘iston | | Turkiya | | Qirg‘iziston | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Jami eksport | 10,6 | 16,0 | 3,9 | 10,8 | 7,2 | 6,2 | 9,8 | 5,5 |
| Shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 0,8 | 2,7 | 2,6 | 8,3 | 0,2 | 0,1 | 3,2 | 0,0 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 0,0 | 0,2 | 0,0 | 0,1 | 0,9 | 0,1 | 0,3 | - |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 0,0 | 0,5 | - | 0,0 | 0,0 | 0,1 | - | - |
| Hayvon va o‘simlik lar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | 0,0 | - | - | - | - | - |

| XSST tarkibi | Rossiya | | Qozog'iston | | Turkiya | | Qirg'iziston | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | **2022- y.** |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | - | 0,0 | - | 0,0 | - | - | 0,0 | - |
| Sanoat tovarlari | 9,2 | 9,9 | 0,3 | 0,7 | 6,0 | 6,1 | 1,5 | 2,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | - | 0,0 | - | - | - | 0,2 | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 0,1 | 0,0 | 0,9 | 1,6 | 0,1 | - | 2,7 | 3,2 |
| Xizmatlar | 0,6 | 2,5 | 0,1 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |

Xizmatlar eksporti hajmi 4,5 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 8,4 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,1 martaga o'sish kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (71,2%), safarlar (turizm) (24,1 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (4,7%) hissasiga to'g'ri kelgan.

**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-mart, ulushi % da)***





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 14,3 mln dollar qiymatli yoki 28,9 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 9,9 mln AQSH dollariga teng 24,0 ming tonna sabzavot, shuningdek, 1,9 mln AQSH dollari qiymatidagi 2,8 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 26,7 %ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**
***(2022- yil yanvar-mart, mln AQSH dollari)***




Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay

tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘plangan tajribaga ham bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog‘iston (57,0%), Rossiya Federatsiyasi (19,1 %) va Pokiston (11,1%) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## XORAZM VILOYATINING IMPORTI
## *(2022- yil yanvar-mart)*

2022- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 57,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 39,3 %ga kamaygan.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (55,8 %), sanoat tovarlari (12,1 %), nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari, 11,1 %) , turli xil tayyor buyumlar (9,4 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.




**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)***



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 3,3 %
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari – 11,1 %
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 0,9 %
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 1,2 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 6,2 %
- Sanoat tovarlari – 12,1 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 55,8 %
- Turli xil tayyor buyumlar – 9,4 %

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-martida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 37,1 mln AQSH dollariga kamaygan va 57,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
*(2022- yil yanvar-mart)*

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da | mln AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, %da |
| **Jami import** | **57,3** | **60,7** | **100,0** | **14,2** | **126,6** | **100,0** | **43,1** | **51,8** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 1,9 | 5,9 | 3,3 | 1,3 | 43,6 | 9,1 | 0,6 | 2,4 | 1,4 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 141,5 | 0,0 | 0,0 | 141,5 | 0,1 | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 6,3 | 118,3 | 11,1 | 5,8 | 140,0 | 41,1 | 0,5 | 41,7 | 1,1 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash | 0,5 | 68,0 | 0,9 | 0,5 | 104,9 | 3,4 | 0,1 | 16,2 | 0,1 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| materiallar | | | | | | | | | |
| Hayvon va oʻsimliklar moyi (yogʻlari), yogʻlar va mumlar | 0,7 | 13,0 m. | 1,2 | 0,7 | 13,0 m. | 4,8 | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar | 3,5 | 67,0 | 6,2 | 1,8 | 2,0 m. | 12,6 | 1,7 | 39,7 | 4,1 |
| Sanoat tovarlari | 6,9 | 173,2 | 12,1 | 2,3 | 2,1 m. | 16,5 | 4,6 | 157,2 | 10,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 32,0 | 98,2 | 55,8 | 1,0 | 102,7 | 6,9 | 31,0 | 98,0 | 71,9 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 5,4 | 37,7 | 9,4 | 0,8 | 121,6 | 5,6 | 4,6 | 33,7 | 10,7 |




**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)***

| XSST tarkibi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami import** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 37,6 | 33,9 | 3,3 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari | 13,2 | 5,7 | 11,1 |
| Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moyi va shunga oʻxshash materiallar | 0,2 | 0,8 | 0,9 |

| XSST tarkibi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 3,0 | 0,1 | 1,2 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 4,1 | 5,6 | 6,2 |
| Sanoat tovarlari | 5,2 | 4,2 | 12,1 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 27,8 | 34,5 | 55,8 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 9,0 | 15,2 | 9,4 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-mart, mln AQSH dollari, ulushi % da)***






2022- yil yanvar-mart oylarida import bo‘yicha eng yuqori yettitalikda Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Hindiston, Germaniya hamda Qozog’iston o‘rin egalladi.

**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI**
***(yanvar-mart)***

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Turkiya | 6,3 | 19,7 | 123,8 | 3,1 m. | 5 | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 32,9 | 16,2 | 2,5 m. | 49,3 | 1 | 2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 6,9 | 10,0 | 29,8 | 146,3 | 4 | 3 |
| Turkmaniston | 1,2 | 1,5 | 143,2 | 123,7 | 9 | 4 |
| Koreya Respublikasi | 8,1 | 1,4 | 9,4 m. | 17,7 | 2 | 5 |
| Polsha | 0,4 | 1,1 | 82,5 m. | 3,0 m. | 16 | 6 |
| Ukraina | 1,0 | 1,1 | 92,3 | 115,1 | 10 | 7 |

**XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**
***(2022- yil yanvar-mart)***



2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatga 37 ta xorijiy davlatlardan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Turkiya , Xitoy Xalq Respublikasi , Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Koreya Respublikasi, Polsha  va Ukraina hamkor davlatlaridan jami import hajmi 51,1 mln AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 89,2 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel.: (62) 224-65-16**